



## ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2018 yil yanvar-dekabr (dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-dekabr oylarida Andijon viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 668,4 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan **23,9 %** ga o'sishni ta'minladi.



### Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi (2018 yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, ming kishi	Ish haqi fondi, mlrd. so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
<b>Viloyat bo'yicha - jami</b>		<b>195 640</b>	3 867,2	<b>1668,4</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat		36 337	1 187,4	2 723,2
Qurilish		486	12,6	2 162,5
Savdo		2 873	72,8	2 110,9
Tashish va saqlash		2 742	37,5	1 139,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar		177	1,6	775,3
Axborot va aloqa		906	19,5	1 792,8
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik		4 446	176,9	3 315,6
Ta'lim		85 278	1 392,1	1 360,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish		35 214	500,4	1 184,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish		1 950	26,3	1 122,6
Boshqa faoliyat turlari		24 999	440,1	1 453,6

**Ish haqi.** 2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

**Ta'lim sohasida 85,3** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 43,6 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **1 392,1** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 36,0 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1 360,4** ming so'mni tashkil etdi.



**Sanoat** iqtisodiy faoliyat turida 36,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,6 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 187,4 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 30,7 %ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 723,2 ming so'mni tashkil etdi.



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish** sohasida **35,2** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,0 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **500,4** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 12,9 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1184,1** ming so'mni tashkil etdi.



**Tashish va saqlash** iqtisodiy faoliyat turida **2,7** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,4 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **37,5** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,0 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1139,0** ming so'mni tashkil etdi.




**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati** iqtisodiy faoliyat turida **4,4** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,3 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **19,5** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,6 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3315,6** ming so'mni tashkil etdi.

**Andijon viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(yanvar- dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2017 yil	2018 yil	O'sish sur'ati, %
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 346,6</b>	<b>1 668,4</b>	<b>123,9</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon sh.	1 584,1	2 021,3	127,6
Xonobod sh.	1 443,2	1 895,2	131,3
<i>tumanlar:</i>	-		
Oltinko'l	990,1	1 202,8	121,5
Andijon	1 139,1	1 289,0	113,2
Baliqch	933,2	1 082,8	116,0
Bo'z	1 039,1	1 220,3	117,4
Buloqboshi	1 084,6	1 239,7	114,3
Jalaquduq	1 080,4	1 327,5	122,9
Izboskan	989,5	1 230,4	124,3
Ulug'nor	1 062,2	1 170,5	110,2
Qo'rg'ontepa	1 125,2	1 288,4	114,5
Asaka	1 938,6	2 644,5	136,4
Marxamat	1 132,7	1 246,9	110,1
Shaxrihon	1 070,8	1 258,7	117,5

Paxtabod	1 156,1	1 232,4	106,6
Xo'jaobod	1 197,1	1 453,1	121,4

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2018 yil yanvar- dekabr; viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Asaka tumanida **2644,4** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **158,5** %), Andijon shahrida **2021,3** ming so'mni (**121,2** %) tashkil etgan bo'lsa, Baliqchi tumanida **1453,1** ming so'mni (**64,9** %), Ulug'nor tumanida **1170,5** ming

so'mni (70,3 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil dekabr oyida 501,9 ming so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**Andijon viloyat statistika boshqarmasining  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**  
Tel: (71) 230-82-78, 228-30-54